

## KASBIY MADANIYAT VA UNI BO'LAJAK SOHA VAKILLARIDA SHAKLLANTIRISHNING MAZMUN-MOHIYATI

**Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich**

*t.f.b. falsafa doktori (PhD), dotsent*

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti*

*E-mail: [new\\_rich80@mail.ru](mailto:new_rich80@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Maqolada kasbiy madaniyat tushunchasi, uni bo'lajak soha vakillari, ya'ni talabalarda shakllantirishning muhim ahamiyati, bosqichlari va darajalari, kasbiy madaniyat komponentlari, kasbni muvaffaqiyatli o'zlashtirishni belgilovchi sifatlar tizimi, ta'lim-tarbiya jarayonida kasbiy madaniyatni shakllantirish yo'nalishlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** mutaxassis, kasbiy madaniyat, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, komponent, daraja, sub'yekt, ob'yekt.

**Abstract:** The article analyzes the concept of professional culture, the meaning, stages and levels of its formation among future representatives of the field, that is, students, components of professional culture, a system of qualities that determine the successful mastery of a profession, directions for the formation of professional culture in the educational process.

**Key words:** specialist, professional culture, education, knowledge, skill, ability, component, level, subject, object.

**KIRISH.** Mamlakatimizdagi ijtimoiy o'zgarishlar, bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishi, sohalardagi rivojlanish darajasi jamiyatning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini oshirmoqda. Ta'lim har doim jamiyat ma'naviy salomatligining eng yaxshi barometri bo'lib kelgan. Jamiyatni puxta tayyorlangan, innovatsion kadrlarsiz, ya'ni o'z taqdiriga befarq bo'lmasan, yangicha dunyoqarashga ega bo'lgan, ma'naviy va dunyoqarash jihatdan erkin, ochiqlik va demokratiyaning

yangi sharoitlarida ishlay oladigan yuksak salohiyatli mutaxassislar siz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish ta’limni modernizatsiya etish bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech o‘g‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz” [1, 14]. Bunda oliy o‘quv yurti talabalarida kasbiy madaniyat haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, kasbiy madaniyat mustaqil fikrlash, mustaqil ishslashning asosiy manbai bo‘libgina qolmay, balki har bir shaxsning ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo‘yicha mehnat xususiyatlarini namoyon etish imkoniyatlarini oshiradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarda kasbiy madayatni rivojlantirish masalalari mahalliy mualliflarning ishlarida deyarli kuzatilmadi. Talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish mavzusi T.M.Shamsuddinova, F.B.Xudoyqulova, Z.D.Rasulova, Sh.X.Kuliyeva kabi mahalliy mualliflarning maqolalarida aks ettirilgan. Turli kasblardagi bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy madaniyatini o‘rganish G.A.Ball, M.G.Boyko, A.G.Vidri, A.V.Vineslavskaya, N.I.Voloshko, Y.A.Klimov, A.V.Prosfori, V.V.Ribalki va boshqa xorij olimlarining ishlarida kuzatiladi. Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining xususiyatlari A.N.Averyanova, V.G.Afanasyev, Y.K.Babanskiy, V.P.Bespalko, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, E.M.Nikitin, G.N.Serikov, V.A.Slastyonin kabi olimlarning ishlarida ko‘zga tashlanadi.

**NATIJALAR.** Ilmiy adabiyotlarda “kasbiy madaniyat” tushunchasiga juda ko‘plab ta’riflar berilgan. Kasbiy madaniyat – bu shaxsning ma’lum bir dunyoqarashi va maxsus bilimlari, fazilatlari, qibiliyatlari, ko‘nikmalari, his-tuyg‘ulari, qadriyat yo‘nalishlari bo‘lib, ular uning sub’yekt-mehnat faoliyatida namoyon bo‘ladi va yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Ya’ni kasbiy madaniyat deganda har qanday mehnat turiga

nisbatan shaxsning individual xususiyatlari bilan bog‘liq madaniyat turi tushuniladi [11, 1040].

Shaxsning kasbiy madaniyati mutaxassisning kasbiy muhim fazilatlarini tizimlashtirish, shaxsning ideal kasbiy modellarini yaratish uchun asos bo‘lib, mehnat va kasbiy faoliyat madaniyati uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Nazariya va amaliyot esa bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi sifatida bo‘lajak mutaxassisning shaxsiy fazilatlari darajasini tavsiflovchi kasbiy madaniyat hodisasisidir. A.I. Kapskayaning fikricha, kasbiy madaniyat zarur bilim, ko‘nikma va malakalardan tashqari, ma’lum shaxsiy fazilatlarni, kasbiy faoliyatning turli tarkibiy qismlariga munosabat normalarini o‘z ichiga oladi [6, 134].

V.A.Semichenkoning fikriga ko‘ra, kasbiy madaniyatni shakllantirish jarayonining mohiyati bo‘lajak mutaxassisga tanlangan kasbning mohiyatini, uning ijrochiga qo‘yadigan talablarini, kasbiy faoliyatning maqsadlari, mazmuni va funksiyalarini, kasbiy faoliyatning mumkin bo‘lgan individual strategiyalarini tushunishga, kasbiy vazifalarni bajarish, kasbiy mahoratning o‘ziga xos xususiyatlari va uni o‘zlashtirish usullari, kasbiy faoliyat mazmuni va tuzilishiga ijodiy moslashish usullarini o‘rganishga yordam berishdir [12, 114].

Ta’lim jarayoni sharoitida kasbiy madaniyatni shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: kasbiy individuallikni rivojlantirish, ya’ni kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini o‘zlashtirish, ta’lim, kasb va umuman jamiyat ijtimoiy-madaniy tajribaga jalb qilish, kasbiy o‘zini o‘zi anglash va ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan fazilatlar to‘plamini rivojlantirish [5, 26].

Bo‘lajak mutaxassisni tayyorlashda uning kasbiy madaniyatini shakllantirish yetakchi rol o‘ynaydi, bu o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy va kasbiy qadriyatlarni shaxsiy qadriyatlarga aylantirish jarayonidir. N.V. Krilovaning fikricha, kasbiy madaniyat nafaqat eng yaxshi madaniy me’yorni aniqlash va tanlash qobiliyati, balki yangi madaniy naqshlardan foydalanish istagidir. Uning yozishicha, kasbiy madaniyat deganda bu ta’limda o‘z madaniyati va madaniy o‘ziga xosligini, o‘z-o‘zini tiklash holati va doimiy o‘zgarishlarga duchor bo‘lishi tushuniladi [7, 205].

Kasbiy madaniyat to‘rt komponentni o‘z ichiga oladi: faoliyatni qo‘llash sohalari bo‘yicha bilim, faoliyatning ma’lum usullarini amalga oshirish tajribasi, faoliyatga hissiy va qadriyat munosabati tajribasi, yangi kasbiy vazifani hal qilishga ijodiy yondashish qobiliyati [8]. N.D.Tilyakovaga ko‘ra, kasbiy madaniyat 5 komponentni o‘z ichiga oladi. Bular: 1. Kognitiv (shaxsiy bilimlar tizimi), 2. Aksiologik (shaxsning qiymat yo‘nalishlari tizimi), 3. Reflektiv (ular asosida ishlab chiqilgan ko‘nikma va qobiliyatlar tizimi), 4. Muloqot qilish qobiliyati (kasbiy faoliyatning individual normalari va o‘zlashtirilgan usullari tizimi), 5. Ijtimoiy-madaniy (ijtimoiy tuyg‘ular tizimi). Talabalarda kasbiy madaniyat 3 bosqichda shakllanadi: reproduktiv, normativ (me’yoriy) va ijodiy [13, 240].

Talabalarning kasbiy madaniyatini shakllantirish bosqichlari:

<b>Nº</b>	<b>Bosqichlar</b>	<b>Kasbiy madaniyatni shakllantirish bosqichlarining mazmuni</b>
1	Reproduktiv	Quyidagi usullar qo‘llaniladi: so‘roq, tushuntirish, takrorlash va boshqalar. Talaba pedagogik ta’sir ob’yekti bo‘lib, muammolarni hal qilishda muvaffaqiyatga hissa qo‘shadigan bilim, ko‘nikma va malakalarni idrok etadi hamda takrorlaydi, o‘quv jarayoni va tanlangan o‘quv faniga nisbatan ijobiy motivatsiya shakllanadi.
2	Normativ	Yetakchi o‘rinni usullarni qo‘llash orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan usul va uslublar egallaydi: fikrlash, dalillar, muhokamalar va boshqalar.
3	Ijodiy	O‘quv-tarbiyaviy jarayon shunday qurilganki, talabalar maxsus fanlarni o‘rganishda o‘zlarining ijodiy tajribasiga ega bo‘lishlari mumkin. O‘qituvchining vazifasi talabalarni auditoriyada va undan tashqari mashg‘ulotlarda

		faol mustaqil ishlashga undashdir. Turli usullar qo'llaniladi: muammoli, inversiya, interaktiv va boshqalar.
--	--	--

O'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar kelajakda jismoniy tarbiya va sport sohasidan farqli o'laroq ishlab chiqarish va maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi mutaxassislarning kasbiy madaniyatini shakllantirishning to'rtta darajasini aniqlashga imkon berdi: boshlang'ich, reproduktiv, rekonstruktiv, ijodiy.

*Boshlang'ich daraja* kasbiy madaniyatning shakllanmagan tarkibiy qismlari bilan tavsiflanadi. Ya'ni, talabalarining kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari kelajakdagi faoliyat funksiyalarini samarali bajarish uchun yetarli emas, kasbiy jihatdan muhim fazilatlar va o'z-o'zini takomillashtirishga intilish mavjud emas. Nazariy tayyorgarlikning past darajasi talabalarining rivojlanmagan ijodiy qibiliyatlari, mustaqil qarorlar qabul qilishni xohlamasliklari bilan uyg'unlashadi.

*Reproduktiv daraja* kasbiy madaniyat aksariyat tarkibiy qismlarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan tavsiflanadi. Bunday darajadagi talabalar ma'lum miqdordagi asosiy kasbiy bilimlarni o'zlashtirgan bo'lsalar ham, ularni amaliy faoliyatda har doim ham tez va moslashuvchan qo'llay olmaydilar. Ushbu darajadagi talabalar professional muhim fazilatlarning yetarli darajada shakllanmaganligi va kelajakdagi kasbiy faoliyatning qadriyatlari va axloqiy me'yorlari haqidagi noaniq g'oyalari bilan ajralib turadi.

*Rekonstruktiv (qayta qurish) darajasi* kelajakdagi faoliyat funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan kasbiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlarining yetarli darajada shakllanishi bilan ajralib turadi. Talabalar o'zlarining axloqiy qadriyatlarini biladilar, kasbiy axloqiy me'yorlar bilan tanishadilar, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarga ega, kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirishga intiladilar, asosiy kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallaydilar, lekin ularni faqat kasbiy faoliyatning odatiy holatlarida qo'llashlari mumkin.

*Ijodiy daraja* kasbiy madaniyatning barcha tarkibiy qismlarining shakllanishi bilan tavsiflanadi. Talabalar ko'p qirrali, mustahkam bilim va ko'nikmalarga ega,

ularni o‘z kasbiy faoliyatida moslashuvchan va samarali qo‘llay oladilar, o‘z vazifalarini bajarishga faol va ijodiy yondashadilar, nostandard vaziyatlarda o‘z qarorlarini qabul qilishga tayyor. Ular o‘zlarining o‘rnatilgan kasbiy fazilatlari, barqaror kasbiy va ma’naviy qadriyatlar yo‘nalishlari va doimiy kasbiy o‘zini-o‘zi takomillashtirish istagi bilan ajralib turadi [11, 1041-1042].

Bo‘lajak mutaxassislar tomonidan tanlangan kasbni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishni belgilovchi sifatlar tizimi V.I.Andreyevning 9 ta sifat blokini tavsiflovchi tadqiqotida aniq ta’kidlangan: motivatsion va ijodiy faoliyat, shaxsning faoliyatga yo‘naltirilishi; intellektual va mantiqiy qobiliyatlar; intellektual – evristik qibiliyatlar; dunyoqarash sifatlari; axloqiy fazilatlar; estetik fazilatlar; kommunikativ va ijodiy qibiliyatlar; o‘z-o‘zini boshqarish qibiliyatları, samarali faoliyatning kafolati bo‘lib xizmat qiladigan individual xususiyatlar. Ko‘rib turganimizdek, V.I.Andreyev bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy bilim va uni tashkil etish tajribasini o‘zlashtirish jarayonida unumdorligini tavsiflab, ularning qibiliyatlarini (mantiqiy, intellektual, ijodiy va boshqalar) individual psixologik xususiyatlarni shaxs kasbiy fazilatlari sifatida belgilaydi [3, 238].

Talabaning kasbiy madaniyati u oliv o‘quv yurtida tahsil olayotgan paytda, asosiy bilim va ko‘nikmalar, qadriyat yo‘nalishlari, uning o‘quv faoliyati motivlari, o‘zini o‘zi va atrofidagi dunyoda anglashi, bilim berish uslubi, o‘zi o‘qiyotgan kishilar bilan munosabatlari, uning ichki madaniyati, ijodiy salohiyatini rivojlantirish qibiliyati va boshqalar bilan belgilanadi. Tarkibiy qismlar (komponent)dan kamida bittasining yetishmasligi butun tizimni buzadi, talabaning, umuman olganda, kelajakdagi mutaxassisning kasbiy faoliyati samaradorligini pasaytiradi [13, 240].

Ta’lim-tarbiya jarayonida kasbiy madaniyatni shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: kasbiy individuallikni rivojlantirish, ya’ni kasbiy bilim, ko‘nikma va ta’lim kompleksini o‘zlashtirish – kasb va jamiyatni jalb qilish, ijtimoiy-madaniy tajribada bir butunlik, kasbiy o‘zini o‘zi anglash va ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan fazilatlar majmuini rivojlantirish [5, 26].

Bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash qobiliyati, bilimning yangi shakllari, turlari va darajalarini yaratish qobiliyati o'quv faoliyati uchun bilimning o'zidan ko'ra muhimroq tartibdir. O'rghanish yoki bilim olish talabalarning kasbiy faoliyatining asosiy turi bo'lib, kelajakdagi mutaxassisning madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bo'lajak o'qituvchi yoki trener shaxsini, uning tafakkurini, dunyoqarashini, xarakterini, mehnat qobiliyatini shakllantirishda asosiy o'rinni o'quv faoliyatiga beriladi [15].

Jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy vaziyatda ta'limni insonparvarlashtirish birinchi o'ringa chiqadi, ammo insonparvarlik sub'yeqtlarining rolini oshirish ma'nosida emas. Bo'lajak mutaxassisni tayyorlashdagi e'tibor o'zgarmoqda. U tanlangan yo'nalish bo'yicha yuqori malakali mutaxassis va madaniyatli kishi bo'lishi kerak [2, 576]. Oliy o'quv yurtida talabaning kasbiy madaniyatini shakllantirish va uning saviyasini oshirish vazifalari haqida gapirganda, talabalarning mustaqil ishlari mazmunini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu ijodiy hamkorlikda, o'qituvchilar va talabalarning birgalikdagi ijodida amalga oshirilishi kerak.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish uchun bo'lajak mutaxassisning o'zini o'zi rivojlantirish va shaxsiy o'sishi uchun motivatsiya muhim ahamiyatga ega. A.A. Derkach ta'kidlaganidek, inson o'z-o'zini rivojlantirishni loyihalash qobiliyatini egallashi va o'z ijodiy faoliyati doirasida bilimlarini mustaqil amalga oshirish uchun sharoitlarni tashkil qilishi kerak [4, 575].

Adabiy (pedagogik) ta'lim tizimi talabalarda ularning ongi va kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan madaniy jarayonning yaxlit dialektik tasvirini qayta tiklashga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu bilan birga bo'lajak mutaxassisning umumiy va kasbiy madaniyatini asosiy mezon deb hisoblash mumkin. Bu yerda biz quyidagi dinamikani ko'ramiz. Kasbiy pedagogik madaniyatni unda qabul qilingan qadriyatlar tizimi, ta'lim munosabatlari, kasbiy faoliyat usullari sifatida ko'rib chiqsak, uning tarkibida biz qadriyatlarga yo'naltirilganlik, ta'lim jarayoni, kasbiy faoliyat usullari, kasbiy faoliyat ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning tabiatini kabi tarkibiy qismlarni ajratamiz [14].

**MUHOKAMA.** Agar bilimga yondashuv ustun bo'lsa, unda butun o'quv jarayoni talabalar tomonidan zarur bilimlarni olishga qaratilgan bo'ladi. Bunday holda, imperativ-ta'lism tipidagi kasbiy madaniyat barcha hamroh bo'lgan belgilar bilan shakllanadi: avtoritar ta'sir usullari, sub'yekt-ob'yekt munosabatlari, ta'lim tizimining yopiq tabiatni va kasbiy faoliyatni qat'iy tartibga solish. Talabalarning shaxsiy sifatlariga yo'naltirilganlik, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, psixologik-pedagogik terapiya va ijtimoiy moslashuvga e'tibor qaratish ijtimoiy-insoniy tipning o'ziga xos belgilaridir. Bu yerda asosiy qadriyat kasbiy faoliyat mahsuli sifatida bilim emas, balki talaba bilim olish qobiliyati rivojlangan integral shaxs sifatidadir. Ushbu turdag'i kasbiy madaniyatning hamrohlik xususiyatlari quyidagilardir: pedagogik tajribani doimiy ravishda aks ettirish; boshqa talabalar, ota-onalar, atrofdagi jamiyat, sub'yekt-sub'yekt munosabatlari bilan pedagogik hamkorlik va o'zaro munosabatlarning yangi, yanada ilg'or modellarini izlash, ta'lim tizimlarining ochiqligi, ilhomlantiruvchi boshqaruvi uslubi [9, 71].

Bo'lajak mutaxassisning kasbiy madaniyati xulq-atvor va kasbiy faoliyatning ijodiy boshlanishining integral ko'rsatkichi sifatida barcha tarkibiy qismlarning birligi va o'zaro ta'sirida shakllanadi. Shunday qilib, shaxsning tezaurus va natijalari uning bilim qobiliyatini, intellektual salohiyatini tavsiflaydi. Qiziqishlarning kengligi va chuqurligi ma'naviy ehtiyojlar darajasini ta'minlaydi. Dunyoqarash shaxsiy madaniyatning ijtimoiy yo'nalishini belgilaydi. Ko'nikma va malakalar shaxsning predmetli-amaliy va nazariy tajribasining kengligini belgilaydi. Shaxs tomonidan qabul qilingan me'yorlar va shaxs tomonidan o'zlashtirilgan kasbiy faoliyat usullari xatti-harakatlarni tartibga soladi. Insonning his-tuyg'ulari madaniyati uning xulq-atvori va kasbiy faoliyatining hissiy boyligini belgilaydi [10, 116].

**XULOSA.** Kasbiy madaniyat ta'limini takomillashtirish muammolari bo'yicha e'lon qilingan ilmiy adabiyotlar tahlili hozirgi shakllangan tendensiya doirasida faqat chegaralangan tor (lokal) yangiliklar kiritishga intilishlar mavjudligidan dalolat beradi. Biroq, hosil bo'lgan ziddiyatlarni tub o'zgarishlarsiz hal qilib bo'lmaydi. Jamiyat ongingin o'zgarishi natijasida o'zini o'zi rivojlantirish, o'ziga o'zi tarbiya berish,

mustaqil o‘qib bilim orttirish, bilim, ko‘nikma, malakalarni yetkazishning birinchi darajadagi ahamiyatligida kasbiy madaniyat ta’limida yangi qadriyatlar paydo bo‘ldi. Shakllanayotgan kasbiy madaniyatning yangi konsepsiysi oliy ta’lim tizimida kasbiy madaniyat va soha mutaxassislari tayyorgarligida ham xuddi shunday munosib o‘zgarishlar bo‘lishi zarurligini talab qiladi. Bu davlat ta’lim standarti mazmunida, yangi o‘quv rejalar va dasturlarda hamda kadrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish yo‘llarini izlashda o‘z ifodasini topgan.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2016). Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston.
2. Allamuratovich, T. Y. (2023). YANGI O’ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA OID DAVLAT SIYOSATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(5). 575-581.
3. Андреев, В.И. (1988). Диалектика воспитания и самовоспитания: основы педагогики творчества. – Казань: Изд-во Казанского ун-та.
4. Деркач, А.А. (2004). Акмеологические основы развития профессионала. - М.: Изд-во Московского психолого-социального института. – Воронеж: НПО, МОДЭК».
5. Зиятдинова, Ф.Г. (1999). Социальные проблемы образования. – М.: Издательство государственного гуманитарного университета.
6. Капська, А.Й. (2001). Социальная работа: Начально-методичный пособник. – К.: УДЦССМ.
7. Крылова, Н.В. (2000). Культурология образования. – М.: Народное образование.
8. Лернер, И.Я. (1989). Теория современного процесса обучения, её значение для практики. – М.
9. Лопатина, Г.С. (1991). Творческая атмосфера – условие гуманизации учебного процесса. Современная педагогика. № 12. – С. 70-72.

10. Малиновская, В.Н. (1999). Введение в педагогическую профессию: учеб. пособие. – Сургут: Изд-во Сургут. гос. пед. ин-т.
11. Музалёв, А.А. (2014). Профессиональная культура и ее роль в формировании профессиональных качеств специалиста в условиях профессионально-технической школы. Молодой ученый. № 4 (63). 1040-1045.
12. Семиченко, В.А. (1997). Пути повышения изучения психологии. - К.: Магистр. S.
13. Тилекова, Н.Д. (2018). Вопросы формирования профессиональной культуры у студентов. Учёные записки (Алтайская государственная академия культуры и искусств). Научный журнал № 3 (17).
14. Турдимуратов, Я. (2023). О ‘zbekistonda etnosportni ommalashtirish va rivojlantirishning asosiy yo ‘nalishlari. Актуальные проблемы спортивной науки, 1(2), 125-128.
15. Turdimuratov, Y. A., & Djo’rabayev, A. M. (2024). STATE POLICY ON TRAINING SPECIALISTS IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN THE NEW UZBEKISTAN. Modern Science and Research, 3(2), 141-146.
16. Турдимуратов, Я. (2023). О ‘zbekistonda etnosportni ommalashtirish va rivojlantirishning asosiy yo ‘nalishlari. Актуальные проблемы спортивной науки, 1(2), 125-128.